

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

Bo'lajak o'qituvchilarda pedagoglarga xos xislatlarni shakllantirish.

*Yunusaliyeva Guljahon Araboy qizi*

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti*

*,,Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi"*

*mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogik maxorat, pedagog shaxsida mavjud, bo'lishi kerak bo'lgan xislatlar va ularni shakillantirish, rivojlantirish xaqida bayon etilgan.

**Tayanch so'zlar:** Etika, imo-ishoralar, mimika jeslar, tabassum, komunikatsiya.

**Etika** - (grekcha-odat, fel-atvor) odob axlojni o'rganuvchi falsafa ilmidir.

**Kasb etikasi** - (kasbiy axloq) bu odomlarning kasb faoliyatidan kelib chiqadigan o'zaro munosabatlarning axloqiy xarakterini taminlaydigan qonuniyatlardir.

Bunday qonuniyatlarning kelib chiqishi va rivojlanishi inson axloqi yo'nalishlaridan birini aks ettiradi, chunki ular shaxs qadrini va shaxslararo munosabatlarda odamiylikning yuzaga kelishiga yordam beradi.

Axloqiy talablar umumiyligi bo'lishiga qaramay bazibir kasbiy faoliyatlarni olib borishda alohida xulq-atvor normalari vujudga kelmoqda. Masalan pedagog o'z faoliyati jarayonida o'quvchilar ongida mukammal, komil inson sifatida gavdalanmog'i, o'rnak -namuna bo'lmog'i lozim.

Darsni tashkil etishda muomala madaniyati xam pedagogdan katta maxorat talab etadi. Har qanday lavozimga nomzod deb qaralayotgan pedagogda bunday fazilatlar bo'lishi va bu fazilatni har qanday sharoidda namoyon qila olishi muximdir. Siz MTT, maktab yoki OTM da faoliyat olib borishingizdan qatiy nazareng muximi o'z fikringizni aniq va ravon ifoda eta olishingizdir. Bu esa sizning muvaffaqiyatingizga zamin yaratadi. So'zlayotgan xar qanday inson beixtiyor imo-ishora, jeslardan foydalanadi. Imo- ishoralar bazan nutqning xam o'rnini bosishi mumkin. Ortiqcha va noo'rin xarakatlar, qo'llarni silkitish, lab burish, yelka xarakatlari pedagogni obrosizlantiradi va madaniyatsizlik belgisi sanaladi. Imo-ishoralar orasiga mimika, tabassumni xam kiritishimiz mumkin Amerikaliklar tabassum qilinglar deb gapirishni yaxshi ko'rishadi. Biroq tabassum vaziyatga to'g'ri kelishi lozim. Tabassumning normadan ortig'i xam, butkul kamayib ketishi xam, o'quvchilarda birinchida sizga bo'lagn munosabat, ikkinchidan darsga bo'ldan qiziqish va o'zlashtirishga tasirini ko'satmay qolmaydi. Malumotlarga ko'ra buyuk rus adibi L N Tolstoy asarlarida 85 xil qarash va 97 xil tabassum tasvirlangan.

**Qadam tashlash xamda gavdani tutish** va shaxsning komillikka erishishida xam bog'liklik mavjud. Yani qadam tashlash madaniyati xam komillikning bir qismidir. Pedagogning tashqi qiyofasi, madaniyati, to'g'ri va chiroyli yurishi, odam tanasining xolati, tabiiy erkin xarakatlari, meyorida g'ayratli epchil bir maromda tananing keskin burilishlarisiz bo'lishi katta axamiyatga ega. Bu nafaqat madaniyat, etika balki sog'lomlik jismonan yetuklikni bildiradi. Gandiranglab, o'ynab, lapanglab, shappillab payavzalni sudirab yurish pedagog shaxsi uchun noto;g;ri va xunuk holatdir.

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

Insonning tashqi ko'rinishi,xulqi va did bilan kiyinishi,o'zini jamiyatda tutishi,suxbat olib borishi va tinglashni bilishi – buning barchasi ijtimoiy xarakrerga ega va oxir-oqibatda insonni ichki dunyosini,uning madaniyat, saviyasini, estetik qarashlarini va didini aks ettiradi. **Zamonaviy mo'dani ajratib turadigan xarakterli qirralari bu** – klassik oddiylik va o'rtachalik,nafislik va qulaylik proporsiya va detallarda sport uslubi me'yor xissi uyg'unlik va ozodalik latofat, detallar birikmasini nafisligiva h.k. Erkakning ish kastumi jiddiy qulay, galstuk va oq ko'yak yoki och rangli ko'yay tavsiya etiladi. Kiyinish uslubi, soch turmagi xam pedagogning didi, ijtimoiy yoki kasbiy tabaqaga mansubligini , fel-atvor xususiyatlarini aytib turuvchi omildir. A A Badalov , V N Panfilov kabi psixologlar maxsus eksperimental sharoidlarda nima kuchli taassurot qoldirishini sinab ko'rdilar. Kuzatish va tadqiqotlar natijasi, birinchi ko'zga tashlanadigan narsa, soch turmagi ekanligi aniqlandi. Insonning soch turmagi uni tanimaydigan darajada o'zgartirib yuborishi mumkin ekan. Soch turmagini tanlashda umumiy qabul qilingan va tan olingan estetik qoidalarga amal qilish darkor soch turmagi bo'y uzunligi yosh soch rangi, yuz shakli,bo'yin uzunligi, peshona shaklini xisobga olgan xolda tanlanadi. Erkaklarning sochi kalta va klassik uslubda bo'lishi lozim.

Yana **xidlar tili** xaqida xam gapirish mumkin.Hidlар оng osti darajasida qabul qilinadi,u sherikningto'liq ko'rinishini yaratishda va uning umumiy madaniyati baxolashda ma'lum tasir ko'rsatadi. Parfyumeriya va kosmetika hidlari inson ijtimoiy darajasini beldiradi. Yoqimsiz xid nafaqat pedagog shaxsini balki jamiyatdagi xar qanday insonni obrosizlantiradi va atrofidagilarning xam kayfiyatiga salbiy tasir ko'rsatadi. Kuchi atir xidi xar doim xam yoqimli xis uyg'otavermaydi.Atiarning muattar xidi sezilar- sezilmas, muattar bo'lishi kerak.

Pedagogik faoliyatda eng ko'zga tashlanarli va asosiy xislatlardan biri bu **xushmuomalalikdir** . Xushmuomalalik- bu jamiyatda qabul qilingan odob qoidalari, xurmat va insoniylik ga riosa qilishni ko'zda tutgan insonlar orasidagi munosabat shakli.

Yaxshi xulq atvor asosida tabiiylik,soddalik , va kamtarlik,insonning yuqori tashqi va ichki madaniyati yotadi.Xulq-atvorning yaxshi bo'lishi pedagog kasbi va faoliyati uchungina emas, balki xar qanday insonning o'ziga xam ijobjiy tasir ko'rsatadi.Tanani tog'ri tutish harakatlarning aniqligini doim nazorat ostida tutish odatga aylanib tetin va yosh ko'rinishga sabab bo'ladi.

Maruza darslarida pedagog o'z xatti xarakatlarini nazorat qilib borishi lozim, aks xolda u odatga aylanib qolishi mumkin. Eng achinarlisi o'quvchilar tomonidan bu qiliqlar o'qituvchiga laqab sifatida ishlatilishidir.Shuning uchun xam pedagog o'zining yurish- turishi,o'tirish,gapirish, kiyinish, burilib qarash usullarini doim nazorat qilishi, shu bilan xar bir vaziyatda tabiiy bo'lishi kerak. Tirsaklarni stol ustiga qo'yish , jag' yoki bosh bilan qo'lga tralish odobdan emas. Yozayotgabda tirsaklar stol ustiga qo'yiladi, yelkalar bir xil balandlikda, bosh va bo'yin oldinga biroz egilgan,bel to'g'ri tutilishi lozim. Oyoqlarning joylashishiga aloxida etibor berilishi kerak. Ularni xar tomonga yoyish,chuvalashtirish yoki stul oyog'ini o'rab olish odobdan emas. Past stulyoki kresloda o'tirgan xolda oyoqlarni oldinga cho'zish mumkin,agar ular boshqalarga xalaqit bermasa. Qo'lllar odatda tizzaustida yoki stol chetiga qo'yiladi,ular erkin bo'lishi, xarakatlar tabiiy bo'lishi bilan birgalikda qo'l xarakati cheklangan bo'lishi kerak. Maruza (dars) vaqtida qo'llarni tomosha qilish barmoqlar bilan stolni taqqillatish ,sochlarnitarash,tirnoq tozalash,barmoqlarni qarsillatish,yuzni silash odobdan emas. Eshikka yuzlangan xolda kirib chiqish lizim, xech xam orqalab yoki yonboshlab emas.gapirayotgan insonga tana va boshni ugurib qarash kerak.Bu shaxsga isbatan xurmatni ifodalaydi.

# **ILM FAN XABARNOMASI**

## **Ilmiy elektron jurnali**

Xulosa qilib aytganda, pedagoglik faoliyati o'ta nozik va masuliyatli kasblar jumlasidandir. Axir aytishadiku shifokor xato qilsa bir inson nobud bo'lishi mumkin, Pedagog xato qilsa butun jamiyat xaf ostida qoladi. Shunday ekan qay kasb yoki hunar egasi bo'lmaylik o'z kasbimizni san'at darajasiga ko'tarmog'imiz va moxirona yondoshmog'imiz darkor. Zero boshqalar bizni va kasbimizni o'z xayotida o'rnak sifatida ko'rsin

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kasb etikasi va psixologiyasi A.A.Allaberganov,Y.R Akovbyans , M.S.Xodjayeva Toshkent-2007
2. Shohrux Nuraliyev PEDAGOG SHAXSI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR // Scientific progress. 2021. №8.
3. Tashmetova Shaxlo Xusanovna, Qayumova Aziza Nurmat Qizi ZAMONAVIY PEDAGOG SHAXSIGA QO'YILADIGAN TALABLAR // SAI. 2024. №Special Issue 50.